



**Sevara ARSLANOVA,**

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktoranti

E-mail: arslanovasevara87@gmail.com

**Ziroatxon ERNAZAROVA,**

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.n

**Ozod TO'RAYEV,**

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, PhD

**Faxriddin KUSHANOV,**

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.d., prof.

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, b.f.n X.To'raqulov taqrizi asosida

## DNK MARKERLARI YORDAMIDA AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, G GENOMLI G'ÖZÄ TURLARI MOLEKULYAR FILOGENETIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, DNK markerlari yordamida AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub> va G genomli g'özä turlarini ierarkik klasterlash usuli asosida, ularning filogenetik shajara daraxtini tuzishga yo'naltirilgan tadjiqotlarning natijalari keltirilgan. O'rganilgan tur va nav namunalar o'ttasidagi o'zaro filogenetik munosabatga oydinlik kiritilgan. Filogenetik tahlil natijalari, *Gossypium* L. avlodgi g'özä turlari 2 ta asosiy klasterga ajralganligini ko'rsatgan. Filogenetik daraxtning yuqori qismidagi 1-klasteridan *G. hirsutum* turiga mansub Ravnaq-1, Ravnaq-2 va Baraka navlari o'rin olgan. 2-klasterning 1-subklasteridan *G. bickii* Prokh., *G. nelsonii* Fryx. va *G. australe* F.Mull. g'özä turlari joy olgan bo'lsa, 2-subklaster o'z navbatida 2 ta kichik subklasterlarga ajralgan hamda 1-kichik subklasterdan *G. herbaceum* L. kenja turlari vakillari joy olib, 2- kichik subklasterdan *G. sturtianum* var.*nandewarensen* va *G. sturtianum* var.*sturtianum* lar joy olgan. Bu esa o'z navbatida 13 ta g'özä namunalarining bir-biri bilan genetik jihatdan o'zaro yaqin yoki uzoqligini ko'rsatib bergan.

**Kalit so'zlar:** g'özä, yovvoyi turlar, madaniy turlar, diploid, tetraploid, DNK, markerlar, genotip.

## МОЛЕКУЛЯРНО-ФИЛОГЕНЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВИДОВ ХЛОПКА С ГЕНОМОМ AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, G С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДНК-МАРКЕРОВ

Аннотация

В данной статье приведены результаты исследований, направленных на составление филогенетического дерева AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, G геномных видов хлопчатника, с помощью ДНК маркеров на основе метода иерархического кластерирования. Уточнены филогенетические взаимосвязи между изученными видами и сортообразцами. Результаты филогенетического анализа показали, что виды рода *Gossypium* L. подразделяются на 2 основных кластера. Сорта Равнак-1, Равнак-2 и Барака вида *G. hirsutum* L. расположены в верхней части 1-кластера филогенетического дерева. Виды *G. bickii* Prokh., *G. nelsonii* Fryx. и *G. australe* F.Mull. расположены в первом субклестере 2-кластера, субклестер в свою очередь подразделяется на 2 младших субклестера. Следует отметить, что представители подвидов *G. herbaceum* L. расположены в первом младшем субклестере, а во втором младшем субклестере расположены виды *G. sturtianum* var.*nandewarensen* и *G. sturtianum* var.*sturtianum*. Подобное расположение, в свою очередь указывает на генетическую близость или удаленность 13 видов и сортообразцов хлопчатника.

**Ключевые слова:** хлопчатник, дикие виды, культивируемые виды, диплоид, тетраплоид, ДНК, маркеры, генотип.

## MOLECULAR PHYLOGENETIC ANALYSIS OF COTTON SPECIES WITH AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, G GENOME USING DNA MARKERS

Annotation

This article presents the results of studies aimed at compiling a phylogenetic tree of AD<sub>1</sub>, A<sub>1</sub>, G genomic cotton species using DNA markers based on the hierarchical clustering method. The phylogenetic relationships between the studied species and varieties were clarified. The results of phylogenetic analysis showed that species of the genus *Gossypium* L. are divided into 2 main clusters. The varieties Ravnak-1, Ravnak-2 and Baraka of the species *G. hirsutum* L. are located in the upper part of cluster 1 of the phylogenetic tree. The species *G. bickii* Prokh., *G. nelsonii* Fryx. and *G. australe* F.Mull. are located in the first subcluster of the 2-cluster, the subcluster in turn is subdivided into 2 junior subclusters. It should be noted that representatives of the subspecies *G. herbaceum* L. are located in the first junior subcluster, and the species *G. sturtianum* var.*nandewarensen* and *G. sturtianum* var.*sturtianum* are located in the second junior subcluster. This arrangement, in turn, indicates the genetic proximity or distance of 13 species and varieties of cotton.

**Key words:** cotton, wild species, cultivated species, diploid, tetraploid, DNA, markers, genotype.

**Kirish.** *Gossypium* L. turlarining morfibioxilma-xilliliklaridan samarali foydalanish, seleksiya jarayoniga yovvoyi turlarning yangi allel genlarini jalb etish, qishloq xo'jalik zararkunandalariga va kasalliklariga bardoshlilik yangi genini sistemali potensialga ega bo'lган, foydali belgilili noyob boshlang'ich manbalarni yaratish istiqbolini belgilab beradi.

Genetik gibrnidizasiya xususiyatlariaga asoslanib, *Gossypium* L. turlari birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali genofondlarga birlashtiriladi. G'özä zanning birlamchi genofondini ham madaniy (*G. hirsutum* L. va *G. barbadense* L.) ham

yovvoyi allotetraploidlar (*G. tomentosum* Nutt.ex Seem, *G. mustelinum* Miers ex Watt. va *G. darwinii* Watt.) tashkil qiladi. Ikkilamchi genofondga A, B, D va F genomlariga ega bo'lgan diploidlar kiradi. Uchinchi darajali genofond esa C, E, G va K genomlariga ega bo'lgan turlardan iborat [1,2]. Bu genetik xilma-xillik, *Gossypium* L. turlarini zararkunandalar va kasalliliklarga chidamliligi, hosildorligi, tola sifati va abiotik omillarga bardoshliligi bo'yicha xilma-xil turlarini nomoyon etadi [2].

*Gossypium austrole* F.Mull. zamonaviy g'o'za genomikasi davrida muhim manba hisoblanadi. Xususan, *G.austrole* F.Mull. vilt (*Verticillium dahliae*) kasalligiga o'ta chidamlari [3, 4] va shu sababli genetik tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida qo'llaniladi. *G.austrole* F.Mull. xromosomalarini *G.hirsutum* L. genomiga introgressiya qilish, genomida diploid g'o'za xromosomalarini bo'lgan liniyalarning olinishi *Verticillium dahliae*, zararkunandalar va kasalliliklarga chidamliligini oshirishi mumkin [5, 6, 7].

*G. bickii* Prokh. turining urug'lari gossipol bezisiz, lekin o'simliklarida gossipol bezli bo'lish xususiyati g'o'za seleksiyasida muhim ahamiyatga ega. O'rta tolali (*G. hirsutum* L.) g'o'za turini *G. bickii* Prokh. bilan oddiy va bekkros duragaylash orqali genomida diploid g'o'za *G. bickii* Prokh. xromosomalarini tutgan tetraploid g'o'za germplazmasi yaratilgan [8].

*G. nelsonii* Fryx. tolasining cho'ziluvchanligi va pishiqligi yuqori, bakterial kuyish, *Verticillium dahliae*, shira, o'rgimchak kana, yuqori harorat hamda qurg'oqchilik kabi biotik va abiotik stress sharoitlariga chidamlidir. Agar, bu belgilar tetraploid *G. hirsutum* L. genomiga ( $2n=4\times=52$ , AADD) o'tkazilsa, hosil bo'lgan genotiplar qimmatli xususiyatlarga ega bo'lishi ko'rsatilgan [9].

Yovvoyi g'o'za germplazmasi qimmatli xo'jalik belgilarini boshqaruvchi genlarning boy manbai sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, ulardan amaliy seleksiyada samarali foydalanish istiqbolini, tur va shakllarning o'zaro filogenetik munosabatlari belgilab beradi.


**Tadqiqot materiallari va uslublari.** Ushbu tadqiqotlar, DNK markerlari yordamida, yovvoyi avstraliya turlari, afro-osiyo g'o'zalari turichi xilma-xilliklari xamda o'rta tolali nav namunalaring o'zaro molekulyar-filogenetik munosabatlarni aniqlash va filogenetik shajara daraxtini tuzishga yo'naltirilgan.

**Genom DNKsini ajratish.** Molekulyar-genetik tadqiqotlar davomida, namunalari unib chiqqan yosh nihollarining barg to'qimalardan STAV usulida genom DNK ajratib olindi. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) tahlillari qo'shimcha 185 ta turli qimmatli belgilarga genetik bog'langan mikrosatellit (DPL, Gh, HAU, JESPR va BNL markerlar kolleksiysi) DNK markerlari yordamida amalga oshirildi hamda jami 192 ta DNK markerlarini tashkil etdi. G'o'za namunalarini genetik tiplashda (genotiplash) Gel Analyzer dasturidan foydalanildi (1-rasm).

G'o'za namunalaringen genotipik ma'lumotlari Microsoft Excel dasturiga kiritildi hamda namunalarning filogenetik shajarasini NSS bioinformatik dasturi asosida ishlab chiqildi.


**Olingan natijalar.** PZR tahliliga ko'ra 92 ta DNK markerlari g'o'za namunalari orasida o'zaro polimorfizmni namoyon etdi (2-3-rasmlar). 92 ta markerlar g'o'za namunalarda monomorf bo'lgan bo'lsa, 8 tasida g'o'za genotiplari genomida amplifikasiya bo'lmadi. Mikrosatellit markerlar kollesiyasining BNL to'plamidan 19 ta, HAU to'plamidan 18 ta, DPL va Gh to'plamlaridan 15 tadan hamda JESPR to'plami markerlardan 2 tasi polimorf bo'lgan (2-rasm).

**1-rasm.** Gel Analyzer dasturida PZR amplikonlari molekulyar og'irligining og'irlik markeriga nisbatan vizual tahlili.




G'o'zada tola sifatini boshqarishda ishtirok etuvchi lokus, BNL3171 DNK markeri bo'yicha PZR tahlili natijasi tadqiqot namunalari o'rtasida polimorfizm namoyon qilganligini ko'rsatdi. PZR tahlili natijalariga ko'ra, *G.sturtianum* var.*sturtianum*, *G.austrole* F.Mull., *G.bickii* Prokh. va *G.herbaceum* ssp.*pseudoarboeum* yovvoyi g'o'za turlarida ushbu marker alleli 150 nukleotid juft (n.j.)ni, *G.sturtianum* var.*nandewarense*, *G.nelsonii*, *G.herbaceum* ssp.*africanum* (Watt) Mauer g'o'za turlarida 145 n.j. ni tashkil etdi. *G.herbaceum* ssp.*frutescens* va *G.herbaceum* 833 navida 160 n.j. ni, *G. hirsutum* turiga mansub Ravnaq-1, Ravnaq-2 va Baraka navlarida esa 180, 160 va 140 nukleotid juft ekanligi kuzatildi.

**2-rasm.** Tadqiqot namunalari o'rtasida polimorf bo'lgan DNK markerlar diagrammasi.



**3-rasm.** Tadqiqot namunalarida tola sifatiga aloqador BNL3171 DNK markeri asosidagi PZR tahlili gel-elektroforegrammasi.




**M** – Molekulyar og‘irlik markeri (50 ng/μl konsentrasiyalı);

**1** – *G.sturtianum* Willis var.*sturtianum*; **2** - *G.sturtianum* var.*nandewarensense* (Der.) Fryx.; **3** - *G.australe* F.Muell; **4** - *G.nelsonii* Fryx; **5** - *G.bickii* Prokh; **6** - *G.herbaceum* ssp.*africanum* (Watt) Mauer; **7** - *G.herbaceum* sub.sp. *pseudoarboreum* Mauer; **8** - *G.herbaceum* ssp.*pseudoarboreum* f.*harga*; **9** - *G.herbaceum* ssp.*frutescens*; **10** - *G.herbaceum* L. 833 navi; **11** - Ravnaq-1; **12** - Ravnaq-2; **13** - Baraka navi.

G‘o‘za namunalarining genotipik ma’lumotlari Microsoft Excel dasturiga kiritildi hamda namunalarning filogenetik shajarasini ishlab chiqishda foydalanildi(4-rasm).

#### 4-rasm. G‘o‘za namunalarining filogenetik shajara daraxti.



DNK markerlari asosidagi PZR tahlili natijalari diploid hamda tetraploid g‘o‘za turlari vakillarining yuqori darajada polimorf ekanligini namoyon etdi. G‘o‘za turlari ierarxik klasterlash usuli asosida tahlil qilinib, ularning filogenetik shajara daraxti tuzildi. Namunalar o‘rtasidagi o‘zaro filogenetik munosabatga oydinlik kiritildi. Filogenetik tahlil natijasiga ko‘ra *Gossypium* L. avlod g‘o‘za turlari 2 ta asosiy klasterga ajraldi.

Filogenetik daraxting yuqoriqismidagi 1-klasteridan *G. hirsutum* turiga mansub Ravnaq-1, Ravnaq-2 va Baraka navlari o‘rin oldi. 2-klasterning 1-subklasteridan *G.bickii* Prokh., *G.nelsonii* Fryx. va *G.australe* F.Mull. g‘o‘za turlari joy olgan bo‘lsa, 2-subklaster o‘z navbatida 2 ta kichik subklasterlarga ajraldi hamda 1-kichik subklasterdan *G. herbaceum* kenja turlari vakillari joy olib, 2- kichik subklasterdan *G.sturtianum* var.*nandewarensense* va *G. sturtianum* var.*sturtianum* lar joy oldi. Bu esa o‘z navbatida 13 ta g‘o‘za namunalarining bir-biri bilan genetik jihatdan o‘zaro yaqin yoki uzoqligini ko‘rsatib berdi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, ushbu dendrogrammadagi ma’lumotlar g‘o‘za namunalarining o‘zaro eng uzoq filogenetik munosabatda bo‘lgan keng genetik xilma-xillikka ega seleksion manba sifatida foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi. Buning natijasida, bunday xilma-xillikka ega namunalar tadqiqotlarda amalga oshiriladigan genetik xaritalash, an'anaviy va molekulyar seleksiya asosida hosildor yangi navlarni yaratish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

- Campbell BT, Saha S, Percy R, Frelichowski J, Jenkind JN, et al. (2010) Status of the global cotton germplasm resource. *Crop Sci* 50: 1161-1179.
- Abdurakhmonov IY, Buriev Z.T., Shermatov SE, Abdullaev A.A., Urmonov K., et al. (2012) Genetic diversity in *Gossypium* genus. In: Caliksan M. (ed.). *Genetic diversity in plants*. InTech, Uzbekistan, Central Asia.
- Benkang G. and Cun M. (1996) China Cotton Breeding resistant to Disease. Nanjing: Jiangsu Science and Technology Publishing Press.
- Wang.C., Ulloa M., Duong T. and Roberts P.A. (2018a) Quantitative trait loci mapping of multiple independent loci for resistance to *Fusarium oxysporum* f. sp. *vasinfectum* races 1 and 4 in an interspecific cotton population. *Phytopathology* 108, 759–767.
- Wang Y., Feng S., Li S., Tang D., Chen, Y., Chen, Y. and Zhou, B. (2018c) Inducement and identification of chromosome introgression and translocation of *Gossypium australe* on *Gossypium hirsutum*. *BMC Genom.* 19, 15.
- Benbouza H., Lognay G., Scheffler J., Baudoin J.P. and Mergeai G. (2009) Expression of the ‘glanded-plant and glandless-seed’ trait of Australian diploid cottons in different genetic backgrounds. *Euphytica*, 165, 211–221.
- Chen Y., Wang Y., Wang K., Zhu X., Guo W., Zhang, T. and Zhou, B. (2014) Construction of a complete set of alien chromosome addition lines from *G. australe* in *G.hirsutum*: morphological, cytological, and genotypic characterization. *Theor. Appl. Genet.* 127, 1105–1121.
- He, J. X., and S. W. Sun, 1994: A Scheme for introgression of delayed gland morphogenesis gene from wild *G.bickii* Prokh. into cultivated upland cotton (*G. hirsutum*). *Acta Genet. Sin. (Chinese Journal of Genetics)* 21, 52-58.
- Yin X, Zhan R, He Y, Song S, Wang L, Ge Y, et al. (2020) Morphological description of a novel synthetic allotetraploid (A<sub>1</sub>A<sub>1</sub>G<sub>3</sub>G<sub>3</sub>) of *G. herbaceum* L. and *G.nelsonii* Fryx. Suitable for disease-resistant breeding applications. *PLOS ONE* 15(12): e0242620. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0242620>